

JISMONIY TARBIYA VA SPORT JARAYONLARIDA MA'NAVIY AXLOQIY TARBIYANING O'RNI

Turganbaev Miyirbek Azamatovich

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti "Jismoniy tarbiya" fakulteti 2-"A"
guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13242945>

Annotatsiya. Maqolada yoshlarga doir davlat siyosatining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari, yoshlar salomatligi, o'quvchilarni jismoniy tarbiya, sport sog'lomlashtirish jarayonlarida ma'naviy axloqiy tarbiyalash bo'yicha mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy axloqiy tarbiya, jismoniy madaniyat, kompetentsiya, sog'lom turmush tarzi, motivatsiyalash, jismoniy tarbiya, sport, ma'naviyat.

THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN THE PROCESSES OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS

Abstract. The article contains comments on the modern development directions of the state policy on youth, youth health, physical education of students, and spiritual and moral education in the processes of sports rehabilitation.

Key words: Spiritual moral education, physical culture, competence, healthy lifestyle, motivation, physical education, sport, spirituality.

РОЛЬ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ПРОЦЕССАХ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА

Аннотация. В статье содержатся комментарии о современных направлениях развития государственной политики в сфере молодежи, здоровье молодежи, физическом воспитании студенческой молодежи, нравственном воспитании в процессах спортивной реабилитации.

Ключевые слова: Духовно-нравственное воспитание, физическая культура, компетентность, здоровый образ жизни, мотивация, физическое воспитание, спорт, духовность.

Muqaddas Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ustivor yo'nalishga aylandi. O'zbekistonning jahon sahnasiga chiqishida, uni dunyo tanishida sport asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Jahon miqyosida o'tkazilayotgan turli xalqaro musobaqalarda sportchilarimiz erishayotgan muvaffaqiyatlar dunyo xalqlarining nigoxini O'zbekistonga qaratayotgani xech kimga sir emas.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbusiga ko'ra qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 – yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi to'g'risida" dagi farmonning beshta ustivor yo'nalishidan to'rtinchisi ijtimoiy sohaning rivojlantirilishiga qaratilgan. Unga ko'ra aholi va ayniqsa respublikamizdagi yoshlar qatlami bandligini ta'minlash, yoshlarning sog'lom voyaga yetishishlari hamda sport va jismoniy tarbiya masalalari bilan bog'liq chora-tadbirlar ham qamrab olingan va ular orasida yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish haqidagi dolzarb masalalar alohida ta'kidlab o'tilgan.

Mazkur qonunda O'zbekiston Xukumatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish huquqiy – me'yoriy asoslari Konstitutsiya va halqaro huquq normalariga mos ravishda yaratildi.

Bundan tashqari yurtimizda yoshlarga oid siyosatni yanada takomillashtirish va ularni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berish borasida 2017-yil 5-iyul kungi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida”gi farmoni, 2017-yil 3-iyundagi PQ 3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida”gi Qarori, Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muxim tashabbusni ilgari surdi. Bu tashabbusning ikkinchisi Yoshlarni jismoniy chiniqtirish ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun shart sharoitlar yaratishga yo'naltirilganligi jismoniy tarbiya va sport yoshlar uchun naqadar muxim omil ekanligini yana bir bor isbotlab turibdi.

Inson avvalo yetuk intellektual va barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun u jismoniy jixatdan chiniqqan, sog'lom, ong va tafakkuri shakllangan ma'naviy yetuk, dunyoqarashi keng, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashadigan, inson xayotida uchraydigan ba'zi noaxloqiy xatti-xarakatlardan xoli (turli xil spirtli ichimliklar va tamaki maxsulotlariga ruju qo'yish, turli xil giyoxvand moddalar ta'siriga tushib qolish, psixotrop tabletkalar xamda ayni kunlarda yoshlar orasida ayniqsa , yuqori sinf o'quvchilarida oz bo'lsada uchrab turayotgan chilim, elektron sigaretalarni istemol qilish, jinoyatchilik va xuquqbuzarliklarni sodir etish kabi va x k) illatlariga nisbatan murosaziz hamda sog'lom fikr egasi bo'lmog'i lozim.

Pedagog olimlardan O.Musurmonova, M.Ochilov, R.Mavlonova, M.Quronov, M.Inomova, S.Nishonova, Q.Tilashev, U.Mahkamov, N.Ortiqov, J.Hasanboev, S.Hasaniy, S.Rahimov, O.Hasanboeva va boshqalar milliy, ma'naviy, tarixiy qadriyatlarimizning yoshlar ta'lim va tarbiyasini takomillashtirishdagi o'rnini belgilab berishda salmoqli hissalarini qo'shdilar.

Berilayotgan bilim qaysi yo'nalishda bo'lishidan qat'iy nazar, o'qituvchi “oltin o'rtalik”ni topib yondasha olishi kerak. Bu esa o'qituvchidan qunt bilan ish olib borishni, tinmay o'qib-izlanishni talab etadi.

Aytaylik, yuqori sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish mashg'ulotlarini tabiat qo'ynida tashkil qilinsa, o'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyasiga xam ijobiy ta'sir qiladi.

Ularda tabiatni go'zalligi, tabiatni sevish, jonivorlarga mehr bilan munosabatda bo'lish, ayniqsa, tabiat boyliklari, xususan, suv resurslaridan to'g'ri va ehtiyotlab foydalanish, ichimlik suvini qadrlash kabi tushunchalarni o'quvchi ongida bir umr muhrlanib qoladigan tarzda singdira olish o'qituvchidan katta mahorat talab etiladi. Buning uchun qisqa shakldagi roliklar, hikoyat va rivoyatlar, hadislardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqori sinf o'quvchilarini darslarida vatanparvarlik g'oyasini sodda va qiziqarli tarzda singdirib borishni maqsad qilib olish mumkin. Masalan, taqdim etilayotgan mavzuga bog'lab turib buyuk ajdodlarimiz Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy tarixiy ma'lumotlar yuzasidan rang-barang va jozibador faktlar yoshlarning ma'naviy olamini boyitish, ularda kuzatuvchanlik, ziyraklik, tabiatga muhabbat, millatlararo tolerantlik xislatlarini shakllantirishda qiziqarli manba bo'la oladi.

Allomalarning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan salmoqli ulushlarini bot-bot eslatib turish orqali vatanparvarlik hissini shakllantirib borish mumkin.

Jismoniy madaniyat tibbiyot, ekologiya, pedagogika, psixologiya kabi fanlar bilan bog'liq xolda shakllangan va rivojlangan. U jamiyat taraqqiyoti, odamlarning samarali mehnat qilishi, aqliy imkoniyatlarining ravnaq topishi, axloqiy poklanish, kelajak nasllarning jismoniy axvoliga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun har bir xalq, har bir millat o'zidan keyin qoladigan avlodning jismonan sog'lom, ma'nan barkamol bo'lib o'sishi xaqida qayg'uradi.

Uch ming yillik tarixga ega bo'lgan "Avesto"da "Bizga shunday kamyoblik baxsh aylagilki, navqiron va kuchli yorlar topaylik. Toki ulardan xushyor va sog'lom farzandlar dunyoga kelsin" deya ta'kidlagani o'sha davrlardayoq insoniyatning jismoniy madaniyat yordamida sog'lom avlodni tarbiyalashga katta e'tibor qaratganidan dalolat beradi. "Avesto"da yoshlarning jismonan chiniqishlari uchun xayotda kerak bo'ladigan mashqlar bajarishliklarini, ya'ni yoshlikdan otda yurish, ovchilikka kerak bo'ladigan mashqlarni bajarish va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullantirilganligini ko'rsatib o'tilgan.

O'zbek xalqining qaxramonlik eposi "Alpomish" dostonida esa kurash, merganlik va chavondozlik musobaqalariga katta e'tibor berilgan. Dostonda yozilishicha, qizlar Alpomishdek oldilariga qo'yilgan shartlarni bajargan yigitlarnigina kuyovlikka loyiq ko'rishgan.

Jismoniy tarbiya va sport orqali sog'lom yoshlarni tarbiyalash butun bir jamiyatning vazifasi bo'lmog'i kerak. Har bir inson, oila, maxalla, ota-ona jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni odatga aylanishi bilan birga, qadriyat sifatida e'zozlashi jamiyatning uzluksiz ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga olib keladi.

Shunday ekan jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish insonga jismoniy jihatdan yangi imkoniyatlarni yaratib beradi. Shu nuqtai nazardan yoshlardagi ma'lum bir xususiyatlar hamda jismoniy tarbiya va sport o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish zarur hisoblanadi.

Yoshlarning xususiyatlari bevosita ularning ma'naviyatida mujassamlashgan bo'lib, undagi tuyg'ularni rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sportning o'rni juda muhimdir.

Yoshlarni ma'naviyati shakllangan bo'lsa u o'zidagi imkoniyatlardan atrofda qilarni manfaati yuzasidan foydalanadi. Aks holda unda o'z manfaatini boshqalar manfaatidan ustun qo'yish holatlari, xohish-istaklari g'olib chiqib turli buzg'unchi illatlarga berila boshlaydi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport inson ma'naviyatini shakllantiruvchi ajralmas qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

REFERENCES

1. "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича 2017-2021 – йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" даги фармони
2. 20175-июль кунги "Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб қувватлаш тўғрисида"ги фармони
3. 2017-йил 3-июндаги ПҚ 3031-сонли "Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш тўғрисида"ги Қарори
4. Ахатов Л.К, Расулов.А.Г "Мутафаккирларнинг спортга оид қарашлари муҳим манбаа кашфиёти сифатида" Жисмоний тарбия ва спортда фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологиялардан фойдаланиш. Қарши 2018.